

**“SOLIQLAR VA SOLIQQA TORTISH” TA’LIM YO’NALISHI
UCHUN SUHBAT SAVOLLARI**

№	SAVOLLAR
I-mavzu. Mamlakatda soliq sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyati va ahamiyatini tushunish	
1.	Mamlakatimizda soliq sohasida olib borilayotgan islohotlarni aytib bering.
2.	Yangi tahrirdagi Soliq kodeksi qanday munosabatlarni tartibga soladi?
3.	Soliqlar hisobiga davlat jamiyat oldidagi funksiyalarni amalga oshirishi nimani anglatadi?
4.	Mamlakatimizda soliq sohasidagi bo’layotgan islohotlarga sizning fikr mulohazalaringiz.
5.	O’zbekistonda soliq sohasiga oid amalga oshirilayotgan islohotlarning mohiyatini tushuntirib bering.
6.	O’zbekiston Respublikasida amalga oshirilayotgan islohotlarning ahamiyati haqida gapirib bering.
7.	2025-yilgi soliq sohasidagi qanday asosiy o’zgarishlarni bilasiz?
8.	Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasida soliq sohasida belgilangan asosiy vazifalar nimalardan iborat?
9.	So’nggi yillarda O’zbekiston soliq ma’muriyatchiligidagi asosiy islohotlarni izohlab bering.
10.	So’nggi yillarda O’zbekiston soliq ma’muriyatchiligini raqamlashtirish borasida qanday islohotlar amalga oshirildi?
11.	O’zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasida soliq sohasiga oid belgilangan asosiy me’yorlarni tushuntirib bering.
12.	Soliq solishning majburiyligi va adolatliligi prinsiplari mohiyatini tushuntirib bering.
13.	Soliq tizimining yagonaligi va soliq solishning oshkoraliqi prinsiplarini tushuntirib bering.
14.	Soliq solishda xalqaro shartnomalar ahamiyatini tushuntirib bering.
15.	O’zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Konstitutsiyada soliq sohasida belgilangan vakolatlari haqida tushuntirib bering.
16.	Soliq sohasida davlat va boshqaruv organlarining o’zaro hamkorligi haqida tushuntirib bering.
17.	O’zbekistonda ma’muriy islohotlar doirasida soliq sohasida qanday asosiy vazifalar belgilandi?
18.	Soliq sohasidagi islohotlar bo’yicha qanday taklif va tasiyalar bera olasiz?
19.	Sizningcha soliq sohasida qanday dolzarb muammolar mavjud deb hisoblaysiz?
20.	So’nggi yillarda mamlakatimiz soliq sohasidagi islohotlarning asosiy natijalari haqida nimalarni bilasiz?
II-mavzu. Soliqlar va soliqqa tortish ta’lim yo’nalishini tanlashda motivatsiya (soha kasbinining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushunish, unga doimiy qiziqish ko’rsatish)	
1.	Soliq sohasida bo’lajak mutaxassis qanday konpetensiyalarga ega bo’lishi kerak deb o’ylaysiz?
2.	Soliq sohasida mutaxassisning jamiyat hayotidagi o’rnini qanday baholaysiz?
3.	Soliq sohasida kadrlar tanlashda qanday me’yorlarga amal qilish kerak?
4.	Soliq sohasini tanlashda ijtimoiy muhit qanchalik ahamiyatga ega?
5.	Soliq sohasida “karyera zinapoyasi” imkoniyatlarini qanday tasavvur qilasiz?

6.	Nima sababdan siz soliq sohasini tanlayapsiz, fikringizni bir necha faktlar bilan bayon eting?
7.	Soliq sohasidagi vakolatli organlar haqida gapirib bering?
8.	Soliq solishning aniqligi va soliq organlarining soliq to‘lovchilar bilan hamkorligi prinsipi haqida gapirib bering.
9.	Soliq sohasida mutaxassisning muomala madaniyati haqida gapirib bering
10.	Soliq sohasida mutaxassis faoliyatida qanday motivatsiyalar bo‘lishi kerak?
11.	Soliq sohasini tanlashda siz uchun muhim jihatlar nimalarda namoyon bo‘ladi?
12.	Soliq sohasini rivojlantirish uchun siz imkoniyatlaringizni qanday baholaysiz?
13.	Soliq sohasini rivojlantirishning kasbiy talablarini izohlang.
14.	Soliq sohasi kasbining mohiyati va ijtimoiy ahamiyatini tushuntirib bering.
15.	Soliq sohasida faoliyat yuritish siz uchun qanchalik ahamiyatlidir?
16.	Soliq organlari xodimlarining huquqlari haqida nimalarni bilasiz?
17.	Soliq organlari xodimlarining qanday majburiyatlarini bilasiz?
18.	Soliq organlari xodimlarining asosiy vazifalari nimalardan iborat.
19.	Soliq nazoratining qanday shakllarini bilasiz?
20.	Soliqlar va soliqqa tortish ta’lim yo‘nalishini tanlashdagi motivatsiyalarining haqida gapirib bering.

(III-mavzu. Shaxsiy-kasbiy xususiyatlar (o‘qishga qobiliyat, kasbiy vazifalarni hal qilishda amaliy faoliyat, intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi, shaxsiy yutuqlar mavjudligi, shuningdek, o‘z ustida ishslash va ijodkorlik qobiliyatları)

1.	O‘quv adabiyotlari, badiiy adabiyotlarni o‘qishga bo‘lgan qobiliyatları (o‘qigan adabiyotlari asosida)
2.	O‘qish davrida intizomlilik, hamjihatlik, mas’uliyatlilik, qaror qabul qilishda mustaqillik darajasi (hayotiy misollarni keltirish va tushuntirib berish qobiliyati asosida)
3.	Shaxsiy yutuqlarga erishganligi (agar mavjud bo‘lsa, portfolio hujjatlari asosida)

(IV-Mavzu. Soliqlar va soliqqa tortish ta’lim yo‘nalishi sohasidagi bilim va kasbiy ko‘nikmalarining mavjudligi.

1.	Soliq va uning funksiyalarini tushuntirib bering.
2.	Soliq va uning belgilarini tushuntirib bering.
3.	O‘zbekistonda amalda bo‘lgan soliqlarni keltiring hamda ularni bevosita va bilvosita soliqlarga ajrating.
4.	Soliqlarning mohiyati va obyektiv zaruratini tushuntirib bering.
5.	O‘zbekiston soliq tizimining huquqiy asoslarini tushuntirib bering.
6.	Yig‘imlarning nazariy mohiyati va soliqlar o‘rtasidagi farqli jihatlari tushuntirib bering.
7.	O‘zbekistonda amalda bo‘lgan soliqlarni keltiring hamda ularni umum davlat va mahalliy soliqlarga ajrating.
8.	Soliqqa tortish elementlarining mazmun-mohiyatini tushuntirib bering.
9.	Nega soliqlar to‘g‘ri va egriga ajratiladi?
10.	Proporsional va progressiv soliq stavkalarining mohyaitini tushuntirib bering.
11.	Rezident va norezident tushunchalari mohiyatini tushuntirib bering.
12.	Jismoniy shaxslardan olinadigan daromad solig‘i haqida nimalarni bilasiz?
13.	Jismoniy shaxslardan undiriladigan yer solig‘i haqida nimalarni bilasiz?
14.	Jismoniy shaxslardan undiriladigan mol-mulk solig‘i haqida nimalarni bilasiz?

15.	Soliq to‘lovchi yuridik va jismoniy shaxslarga izoh bering.
16.	Soliq to‘lovchilarning majburiyatlari haqida nimalarni bilasiz?
17.	Soliq to‘lovchilarning huquqlarini tushuntirib bering.
18.	Soliq agenti kim va uning majburiyatları qanday?
19.	Soliqqa tortishning soddalashtirilgan tizimining mohiyati va maqsadini izohlang?
20.	Jismoniy shaxslarning daromadlarini deklaratsiyalash tizimi haqida nimalarni bilasiz.
21.	Soliq imtiyozi deganda nimani tuushunasiz va qanday soliqqa oid imtiyozlarni bilasiz?
22.	Soliqning tartibga soluvchi fuksiyasini misollar bilan izohlang.
23.	Soliqning qayta taqsimlash fuksiyasini misollar bilan tushuntiring.
24.	Proporsional va progressiv soliq stavkalarining afzalliklari va kamchiliklari haqida gapirib bering.
25.	To‘lov manbaida soliq solinadigan daromad turlarini tushuntirib bering.
26.	Qat’iy belgilangan miqdorlardagi soliqning asosiy qoidalari va soliq to‘lovchilarini yoriting.
27.	Soliqqa tortish maqsadida moddiy naf tarzidagi daromadlar mohiyatini tushuntiring va ular tarkibining 3-4 tasini keltiring.
28.	Soliqqa tortish maqsadida mulkiy daromadlar tarkibining mohiyatini tushuntiring va ular tarkibining 3-4 tasini keltiring.
29.	Iqtisodchi olimlar ilgari surgan soliqqa tortishning nazariy prinsiplarini tushuntirib bering.
30.	O‘zbekistonda amalda bo‘lgan yig‘imlar haqida gapirib bering.